

MASALDA DIALOGIK MUNOSABAT YAXLITLIGI

Karjavuv G'olib Azamat o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378237>

Annotatsiya: Masal janrida dialogik nutq muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Masalda ishtirok etgan qahramonlarning o'zaro suhbatlari orqali asarning g'oyasi ochiladi, obrazlarning fe'l-atvori namoyon bo'ladi. Dialoglar masalni jonlantirib, uni sahnaviy va ta'sirchan qiladi. Nasixat va ibratli fikrlar suhbatlar orqali bilvosita yetkaziladi. Shu bois dialogik nutq masal janrining mazmuni va ta'sir kuchini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: masal, diolog, nutq, nutqning shakllanishi, manologik nutq.

Badiiy matn tahlilida odam xuddi o'z taqdirini o'ylab, iztirob chekayotgandek, badiiy asardagi hayvonlar, qushlar-u darrandalar bilan muloqotga kirishadi. Boyqushning farzandi qaniydi baxtli bo'lsa, quyoshdan ham, oydan ham go'zal xurliqo Gunash bonu (Yapaloqqush qizi)ning vasliga ega chiqsa deb. Ayni dialogik muloqot "**aydi**" [1; 5] kommunikatsiya vazifasini bajaradi. Ikkala obraz ham sujetni rivojlantirib, ijodkor konsepsiyasini to'laqonli tushunib yetishimizga zamin yaratmoqda:

"Anda Ko'rqush aydi: "Men xotun olmoq tamonnosi g'arqobi emasman (Men uylanish orzusiga g'arq bo'lgan emasman ("men" uylanish niyatida emasman) ma'nosida), nechunkim aytmishlar: "dala-tuzni suv olsa, qo'ng'ir g'ozni to'shidin, quloqsizga so'z aytsang, qulog'ingning toshidin" [2; 5].

Anda Yapaloqqush aydi: "Burong'illar masaldurkim, "Bitar ishning boshig'a – yaxshi kelur qoo'ig'a". Yana biri bulki, "Bemor tuzalgusi kelsa, tabib o'z oyog'i birla kelur".

Anda Ko'rqush aydi: "Bo'! Og'iz bo'lma, oyoq bo'l", eshitmadingmuki, "oyoq yugurugi oshqa, og'iz yugurugi boshqa"... Sen kim. Boyo'g'lining eshigiga kishi yubormoq kim? Hech bilmasmusanki, "teng-tengi birla, tezak qopi birla".

Yapaloqqush aydi: "Andin bizning nima kamligimiz bor?..."

Anda Ko'rqush aydi: "Borliqdin maqtanma. "Maqtangan qiz to'yda uyalar" va yana aytmishlar: "O'zini maqtag'oni o'lumning qorovuli". Sening ahvoling olamg'a ma'lumdir. "Oyni etak birla yashursa bo'lurmu?", "Chumchuq semursa, botmon bo'lurmu?", "Olako'zanak ola bo'lsa ham, arslon bo'lmas, olato'g'anoq olg'ur bo'lsa ham, ahvoli ma'lum" [3; 6].

Ko'rqush tomonidan keltirilgan "maqollar" Yapaloqqushning "bizning undan qayerimiz kam" so'rog'iga munosib javob bo'ladi. Chunki Yapaloqqush hayotning past-u balandini, teranliklarini ko'rolmaydi. Faqat – orzu-havas ilinjida, Boyo'o'g'lining qizini kelin qilish ichtagidan o'y suradi. Ko'rqush qalbi va botini bilan, tafakkuri bilan unga uzundan-uzun nasihatlar beradi. Natijada, hayotning murakkab ekanligi, quda-andachilik "ming yil"ligini tushuntira boradi. Maqollar – masalning bir butun xulosasi yanglig' yuzaga chiqadi. Har bir maqol Yapaloqqushning ruhiy-ijtimoiy kayfiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Esteit va faylasuf Yan Parandovskiy shunday yozadi: "Dunyoning adabiyot tomonidan ekspluatatsiya qilinishi ayniqsa, oxirgi yuz yil ichida yanada kuchaydi. Adabiyot qayd etmagan biror kasb-hunar, san'at va mehnatning hech qanday turi qolmadi, yozuvchining nigohi tushmagan hayotning birona xilvatgohi yo'q. Yozuvchi hamma narsani tadqiq qiladi, boshdan kechiradi, anglab, tushunib yetadi va har qanday hodisaning haqiqiy mazmun-mohiyatini, ahamiyatini yoki nogahoniy go'zalligini ochib beradi. Siyosat, armiya, ijtimoiy ma'muriyat roman, novella, satira sahifalaridan o'rin oldi: pana-pastqam, chang bosgan idoralardagi kamtar amaldorlar tashqariga olib chiqilib, "xudolar" va qirollarning qachonlardir taqiqlangan hududi – tragediyalarga olib kirildi" [4; 251]. Binobarin, ijtimoiy dard pafosi Boyqush va Yapaloqqush orasidagi muloqotga asosiy mazmun bag'ishlab turgan Ko'rqush obrazidir. Bu obraz hayot haqiqatini hissiyotlarga berilgan, aql bilan ish tutmay qadam tashlashga shaylangan Yapaloqqushga juda katta falsafiy-ramziy mulohazalarni tushuntirib beradi. Masaldagi maqollar "qissadan hissa" chiqarish formulasi Yapaloqqushning o'g'li Kulonkir xarakterini ham oydinlashtiradi:

"Anda Yapaloqqush aydi: "Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular, – degandek, sen bizni faqir-notavon ko'rdingmu (Sen bizni kambag'al va zaif, hech narsaga kuchi yetmaydigan deb o'yladingmi?)

Bundan bexabar o'xsharsanki: "Cho'bni xor tutsang ko'zga tushar", Bor, men birla so'zlashguncha, Boyo'g'li birla so'zlashg'il.

Anda Ko'rqush aydi: "Ey Yapaloq. Andoq bo'lsa, kuyov bo'lur o'g'lingning otini aytgil".

Anda Yapaloqqush aydi: "O'g'limning nomuborak oti Kulonkir sultondur".

Anda Ko'rqush aytur: "Mundog' fahm va xirad sar manzilidin o'tgan kishilarni ko'rgan emasman"(Bunday fahm va aqlga ega kishilarni ko'rmaganman). Echkining oti Abudkarim bo'lurg'a so'z kerak. Burung'ilar aning uchun: "Ebi birlon so'zlaganning qurboni bo'l", – degan ekanlar. Kulonkir sulton ot qo'ymoq sening haddingmu. Bu ot – Humo, Uqob, Qarchig'ay, Bahrin, Lochin, Itolgu qushlarning salotinidurlar, alarga munosib ot turur" [5; 6-7].

Kelitirilgan parchada Yapaloqqush va Ko'rqushning ma'naviy-ruhiy olami yanada ochiqqlanadi. Bir-biriga aytayotgan maqol va matallari negizida zarbulmasalning poetik qiymati yorqin ranglarda ko'rina boshlaydi. Chunki Ko'rqushning har bir masalaga aql va tafakkur zamirida munosabatda bo'lishi, voqealarning keyingi tomonlari shiddatli, keskin tus olishiga zamin yaratadi. Dunyo masalchiligida ham bunday holatlar xohlagancha topiladi. Ijodkor badiiy niyati va obrazlilik masal arixtektonikasini barqarorlashtiradi. Shu munosabat bilan Gluxaniy qadim donishmandlar tomonidan aytilgan maishiy maqollarni sintezlarday. Masal syujetiga mohirlik bilan payvanlab, Gunash bonu va Kulonqir baxtu saodati uchun reallashtiradi.

Prof. I.Yoqubov badiiylik modusi haqida so'z yuritar ekan, adabiy ta'sir va ijodiy o'ziga xoslikni shu nuqtai nazardan 3 xil jihatiga alohida diqqat qaratishni ma'qul ko'radi: a) yozuvchi ilhomi; b) adib haqiqati va mushohadasi; v) ijodkor badiiy kashfiyoti. Mana shu uch kriteriya shoir yoki yozuvchi ijodiy konsepsiyasida mavjud bo'lsa, uning badiiy mahorati va epik dunyoqarashining nechog'li yuksakligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Poetik olam sirlari shunday bir jozibadorlikni xush ko'radiki, busiz hayot hech qanday mantiq kasb etmaydi. Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy har qanday san'at asarining fazilatlarini uchta xususiyat bilan beliglanadi deydi:

- 1) asarning mazmuni bilan;
- 2) tashqi go'zallik bilan;
- 3) samimiyat va muallif tasvirlayotgan narsani jonli his qila olish bilan [4; 179].

Mana shu uch xususiyatni yuzaga chiqarishda tom ma'noda yozuvchi o'z uslubiga ega bo'lishi, ilhom va iste'dodi, hayotiy tajribasi bilan o'z ijodiy konsepsiyasini mustaham tarzda ifodalay olsagina yuqoridagi noyob xislatlarni tuhfa qilgan bo'ladi. Bunday xususiyat hammaga ham nasib etavermasligi tayin. Ayniqsa, Frans Kafka yo'sinida fikrlaydigan adiblar uchun uslub muvozanatiga jiddiy e'tibor berish zarurdir.

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi quda-andachilik munosabatlari bobidagi hayotiy mulohazalarini shunday estetik qamrovga olganligini tushunish qiyin emas. Masaldagi maqol va matallar ishoralar negizida ochiqilanadi. Boyqushning va Yapaloqqushning quda-anda bo'lishi uchun ne-ne sinov motivini aks etishi Ko'rqush xarakterida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, masaldagi qushlar va hayvonlar obrazi mifologik talqin hamda zamonaviy odamlar obraziga ham moslashtiriladi. Gulxaniy eng qadimgi janr xususiyatlarini o'zi yashab, nafas olib turgan Qo'qon adabiy-ijtimoiy-siyosiy muhiti bilan bir butunlikda bog'laydi. Ana shu qadriyatlar negizida quda-andachilik allegorik obrazda jilvalanadi. Qushlarning parvozi, mushohadasi, zamon va makonda ro'y berayotgan uzil-kesil o'zgarishlar, o'zbek, turkiy xalqlarining milliy mentaliteti, hamda orzular simfoniyasi sinkretik yo'sinda talqin etiladi. Demak, Gulxaniy masal pafosini o'tmish va bugun birligida bog'lay olgan. Botinidagi kechinmalar, yo'qsillik, kambag'allik, yupunlik zahmatlarini qushlar timsolida gavdalantirib, o'quvchi ko'z o'ngida badiiy va baquvvat bir asarni taqdim qila olganligi bilan belgilanadi. Asardagi voqealar tahlili hamda badiiylik shartlari hamda mezonlarini keyingi fasllarda talqin qilamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Гулханий. Зарбулмасал. – Тошкент: Ма'naviyat, 2009.
2. – 5 б.
3. Ян Парандовский. Сўз кимёси. –Т., Янги аср авлоди. 2022. –Б. 251.
4. Гулханий. Зарбулмасал. – Тошкент: Ма'naviyat, 2009.
5. – 24 б.
6. Лев Толстой. Шекспир ва драма тўғрисида. –Т., "Маънавият". 2010. –Б. 179.